XALQ DEPUTATLARI ZAFAROBOD TUMAN KENGASHI QARORI

2023 - yil 23 - yanvar VI-54-1-3-50-K/23 Zafarobod tuman hokimligi

Xalq deputatlari Zafarobod tuman Kengashining 2022 yil 30 dekabrdagi “Tumanda yuridik va jismoniy shaxslarning egaligida bo‘lgan qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha 2023 yil uchun bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-54-193-3-50-K/22-sonli qarorini qonunga muvofiqlashtirish to‘g‘risida

Xalq deputatlari Zafarobod tuman Kengashining 2022 yil 30 dekabrdagi “Tumanda yuridik va jismoniy shaxslarning egaligida bo‘lgan qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha 2023 yil uchun bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-54-193-3-50-K/22-sonli qarorini qonunga muvofiqlashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Xalq deputatlari Zafarobod tuman Kengashining 2022 yil 30 dekabrdagi “Tumanda yuridik va jismoniy shaxslarning egaligida bo‘lgan qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha 2023 yil uchun bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-54-193-3-50-K/22-sonli qarori bekor qilinsin.

2. Tuman adliya bo‘limi tomonidan normativ-huquqiy loyixasini huquqiy ekspertizadan o‘tkazish yuzasidan xulosasiga asosan “Zafarobod tumani bo‘yicha 2023 yilda qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun jismoniy va yuridik shaxslar bo‘yicha mutlaq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsentlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaror loyixasi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilgan holda tasdiqlansin.

3. Tumanda qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutlaq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsentlar 1- ilovaga, jismoniy shaxslar

bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan tashqari) mutlaq miqdorda 1 kv.metr uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsentlar 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Bunda, xalq deputatlari tuman Kengashi yuqorida 1 va 2-ilovalar bilan belgilangan soliq stavkalariga 0,7 dan 3,0 gacha bo‘lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni belgilash huquqiga ega ekanligi ko‘rsatib o‘tilsin.

5. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (X.Begiev), tuman hokimligi moliya bo‘limi (A.Do‘stnazarov), tuman soliq inspeksiyasi (A.Islomov)larga 2023 yildagi budjet-soliq siyosatidagi o‘zgarishlar, soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

6. Mazkur qaror “Zafar yo‘lidan” gazetasida rasman e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining zafarobod.jizzax.uz rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

7. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining “Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari X.Begiev zimmasiga yuklatilsin.

8. Qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Кенгаш раиси **Ў.Рахманов**

Xalq deputatlari Zafarobod
tuman Kengashining
2023 yil 23 yanvardagi
VI-54-1-3-50-K/23-son qaroriga
1-ilova

Qishloq xo‘jaligiga mo‘lajallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutlaq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsentlar

T/R	Hududlar	Koefitsent (0,7 dan 3,0 gacha)	Yer solig‘ining stavkasi 2023 yil uchun (mln.so‘mda)
1	Bo‘ston MFY	0,85	24,21
2	Samarqand MFY	0,85	24,21
3	Uzun QFY	0,80	22,78
4	Birlik QFY	0,80	22,78
5	Yorqin ShFY	0,80	22,78
6	Nurafshon ShFY	0,75	21,36
7	Pistalikent ShFY	0,75	21,36
8	Lolazor QFY	0,70	19,94
9	Chimqo‘rg‘on QFY	0,70	19,94
10	Cho‘liguliston QFY	0,70	19,94

Xalq deputatlari Zafarobod
tuman Kengashining
2023 yil 23 yanvardagi
VI-54-1-3-50-K/23-son qaroriga
2-ilova

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan tashqari) mutlaq miqdorda 1 kv.metr uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsentlar

T/R	Hududlar	Koefitsent (0,7 dan 3,0 gacha)	Yer solig‘ining stavkasi 2023 yil uchun (so‘mda)
1	Bo‘ston MFY	0,84	242,64
2	Samarqand MFY	0,84	242,64
3	Uzun QFY	0,77	222,42
4	Birlik QFY	0,79	228,20
5	Yorqin ShFY	0,79	228,20
6	Nurafshon ShFY	0,74	213,76
7	Pistalikent ShFY	0,74	213,76
8	Lolazor QFY	0,69	199,31
9	Chimqo‘rg‘on QFY	0,70	202,2
10	Cho‘liguliston QFY	0,70	202,2